XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 7-fevral VII-5-19-10-0-K/25 Toshkent viloyati

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Toshkent viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qarorining 14-ilovasi 14 va 22-sonli tartib raqamlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 1011-sonli Qonuniga muvofiq Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Toshkent viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qarori qabul qilingan.

Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasining 2025-yil 29-yanvardagi 01/69-sonli xatida Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qarorining 14-ilovasida Toshkent viloyatining Zangiota tumani va Nurafshon shaharlaridagi turar va noturar joylar uchun belgilangan minimal qiymatlar va yillik stavka koeffitsenti xato tufayli noto‘g‘ri shakllanib qolganligini malum qilgan.

Mazkur xatolikni bartaraf etish maqsadida, Zangiota tumani bo‘yicha qonunchilikda belgilangan “boshqa aholi punktlari uchun” tasdiqlangan miqdorini, Nurafshon shahar bo‘yicha viloyat markazlari uchun ko‘rsatilgan stavka asosida oshiruvchi minimal qiymatlar va yillik stavkalar qiymati koeffitsentini qo‘llanilishi yuzasidan 14-ilovaning 14 va 22-sonli tartib raqamlariga tuzatish kiritish so‘ralgan.

Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasining 2025-yil 29-yanvardagi 01/69-sonli xatini o‘rganib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasining 2025-yil 29-yanvardagi 01/69-sonli xatida ko‘rsatilgan bandlarga o‘zgartirish kiritishga rozilik berilsin.

2. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Toshkent viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qarorining 14-ilovasi 14 va 22-sonli tartib raqamlariga kiritilgan o‘zgartirishlar **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (M.Aripov) kelgusida Xalq deputatlari viloyat Kengashining qaror loyihalarini tayyorlashda xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmasligi yuzasidan xodimlar o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni Xalq deputatlari viloyat Kengashi Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi M.G‘aniyev zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



FAYZIYEVA
SAYYORA
MAVLYANOVNA

Xalq deputatlari Toshkent viloyati
Kengashining
2025-yil 7-fevraldagi
VII-5-19-10-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Toshkent viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qarorining 14-ilovasi 14 va 22-sonli tartib raqamlariga kiritilgan

O‘ZGARTIRISHLAR

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	**II. Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i**					
		Turar joylar uchun			Noturar joylar uchun		
		2025-yil minimal qiymat	koeffitsiyent	2025-yil stavka	2025-yil minimal qiymat	koeffitsiyent	2025-yil stavka
14	Zangiota tumani	5.50	1.30	7.15	11.00	1.30	14.30
22	Nurafshon shahri	13.50	1.30	17.55	26.50	1.30	34.45